

## Andijon viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2026-yil yanvar-fevral oylari uchun

- I. Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Andijon viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

### I. Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

Bugungi kunda viloyatda 4 706 ta sanoat korxonalarini faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy soniga nisbatan yuqori ulushga ega 1 254 tasi (26,6 %) Andijon shahriga, 596 tasi (12,7 %) Andijon tumaniga, 377 tasi (8,0 %) Shahrixon tumaniga, 333 tasi (7,1 %) Asaka tumaniga va 267 tasi (5,7 %) Xo'jaobod tumaniga to'g'ri kelmoqda.

#### Korxonalar soni 1-mart holatiga ko'ra



## II. Andijon viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

**Sanoat** - bu, xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2026-yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalaridan tomonidan 14 001,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 108,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

	Hajm mlrd so'm	Fizik hajm indeksi %
<b>Andijon viloyati</b>	<b>14 001,7</b>	<b>108,1</b>
Andijon sh.	3 016,8	114,1
Xonobod sh.	426,3	107,7
<i>Tumanlar</i>		
Oltinko'l	319,1	108,1
Andijon	263,7	109,3
Baliqchi	345,9	110,2
Bo'ston	135,2	125,4
Buloqboshi	292,6	133,2
Jalaquduq	223,1	110,8
Izboskan	120,0	116,4
Ulug'nor	136,9	107,4
Qo'rg'ontepa	418,5	109,4
Asaka	6 057,2	107,2
Marhamat	103,4	127,4
Shahrixon	415,9	107,6
Paxtaobod	239,7	114,1
Xo'jaobod	360,2	110,8

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

## Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Andijon viloyatida 2026-yilning yanvar-fevral oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 4 010,3 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o'sib borayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, Viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 106,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, Buloqbosh tumanida (130,8 %), Marxamat tumanida (125,1 %), Bo'ston tumanida (122,7 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


### Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish Yanvar-Fevral oylarida



### Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-fevral oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 13 315,0 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (95,1 %)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 94,1 mlrd so'm (0,7 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 557,9 mlrd so'm (4,0 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 34,6 mlrd so'm (0,2 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi 2026-yilning yanvar-fevral oylarida 2026-yilning yanvar-fevral oylari



### III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatda 34 641 dona yengil avtomobillar (2025 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 8,2 % ga ko'paygan), 4,5 ming tonna Neft (22,4 % ga ko'paygan), hamda 12,5 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (78,6 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-fevral *	2025-yil yanvar-fevral *	2026-yil yanvar-fevral *
Yumshoq bug'doy va spelta uni ming tonna	6,7	7,0	12,5
Paxta tolasi ming tonna	7,0	7,0	0,9
Neft ming tonna	3,4	3,7	4,5
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj polotnolar - tonna	457,8	440,0	609,9
Kalish - ming juft	887,0	1 180,7	956,3
Temir yoki po'lat simdan matolar, panjaralar, to'rlar tonna	46,5	2,4	4,1
Yengil avtomobillar dona	35 326	32 016	34 641
80 % dan kam bo'lmagan etil spirti ming litr	2 022,3	1 662,8	1 625,3

\*2024-2025-yillar yanvar-fevral oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**  
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

### Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlar

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2025 yilning yanvar-fevral oylarida 0,0 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 58,3 % (69,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 3,1 % (4,6 %), quyi texnologiyali esa 37,0 % (26,9 %)ni tashkil etgan.






### Andijon viloyatida yirik korxonalar tomonidan yengil avtomobillar ishlab chiqarish yanvar-fevral oylari

Yengil avtomobillar – umumiy yoki “maxsus yengil avtomobillar”ga bo'linib, 4 kishigacha mo'ljallangan transport vositasi.

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2026-yilning yanvar-fevral oylarida 23 216 dona “Cobalt” (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 19,3 % ga oshgan), 6 210 dona “Tracker” (6,4 % ga oshgan), 5 215 dona “Onix” (22,4 % ga kamaygan) ishlab chiqarildi.

Andijon viloyatida yirik korxonalar tomonidan yengil avtomobillar ishlab chiqarish, donada  
*yanvar-fevral oylarida*



**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi**

2026-yilning yanvar-fevral oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektr energiya ishlab chiqarish 19,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-fevral *	2025-yil yanvar-fevral *	2026-yil yanvar-fevral *
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	31,1	50,7	10,0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	0,0	0,0	0,0

## **Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi**


O'tgan yilning mos davriga nisbatan Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya xizmatlar bo'yicha 2,0 % ga kamaygani kuzatildi.

<b>Sanoat mahsulotlari</b>	<b>2024-yil yanvar-fevral *</b>	<b>2025-yil yanvar-fevral *</b>	<b>2026-yil yanvar-fevral *</b>
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar - mlrd so'm	31,6	26,1	23,1
Oqava suvlarning shlami - mlrd so'm	6,1	5,1	7,5

*\*2024-2025-yillar yanvar-fevral oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

### **IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 908,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 34,3 % ni tashkil etdi. 2025-yilning yanvar-fevral oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 27,9 % ni tashkil etgan.



## V. Sanoat ishlab chiqarish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

**Sanoat – bu,** xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

### **Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)**

**Sanoat ishlab chiqarishi hajmi** to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Andijon viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi:

a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

### **Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif**

**Fizik hajm indeksini hisoblash** deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

**Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi** asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

**B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**C** - Ishlab chiqarish sanoati

**D** – Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

### **Metama'lumot uchun havola:**

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erfbgheheh5446456>

**Tayyorlash uchun mas'ul:**

Sanoat va energetika  
statistikasi bo'limi



**Ijrochi:**

O'. Karimov  
74 224-80-00 (6012)